

## MUMTOZ ADABIYOTDA G'AZAL JANRINING TAHLILI

*Termiz davlat universiteti akademik litseyi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizning yirik janrlaridan biri bo'lgan g'azal janri, uning kelib chiqishi, asosiy qoidalari haqida umumiy ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, mumtoz adabiyotning mashhur ga'azallaridan parchalar keltirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *adabiy tur, Alisher Navoiy, g'oyaviy-tematik xususiyatlar, "Devonu lug'otit-turk" asari, sharq mumtoz adabiyoti, ontologik tahlil.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyot tarixi adabiy tur va janrlar tarixi hamdir. Adabiy jarayon ma'lum adabiy tur va janrlarni vujudga keltiradi, ulami shakllantiradi. Adabiy tur va janrlar taraqqiyotida ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning beqiyos o'rni bor. Shoир ijodiyoti bilan o'zbek nazmi ham, o'zbek nasri ham kamol topdi, tur va janrlar jihatidan boyidi. Lirkada - g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarkibband, tarje'band, soqiyonna, qasida, ruboiy, qit'a, tuyuq, fard, muammo, chiston, lug'z va boshqa janrlar yaratildi. Ana shunday mumtoz adabiyot turlaridan biri g'azal bilan yaqindan tanishamiz. G'azal o'zbek mumtoz adabiyotidagi yetakchi janr. U devonlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. G'azal arabcha so'z bo'lib, ayollarga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo'lmoq degan ma'noni bildiradi. «Bilki, g'azal lug'atda ayollarga do'st bo'lishga intilish demakdir», - deb yozadi XIX asrda yashagan hindistonlik olim Qobul Muhammad «Haftqulzum» nomli asarida. G'azal lirk turning Sharq adabiyotida eng ko'p tarqalgan va eng mashhur janri bo'lib, o'ziga xos qofiyalanish, taxallus qo'llash, hajm, kompozitsiya va g'oyaviy-tematik xususiyatlarga ega. Odatda g 'azalning dastlabki ikki misrasi o'zaro qofiyalanib, qofiyalangan bayt matla' yoki mabda' deyiladi. Undan keyingi baytlaming toq misralari ochiq qolib, juft misralar matla' bilan qofiyadosh bo 'ladi. Oxirgi bayt maqta' deb ataladi va aksar hollarda maqta'da (ba'zan undan oldingi baytda) shoirning taxallusi keladi. Masalan, yetti baytli g'azalning qofiyalanish tartibi quyidagicha bo'ladi: a-a, b-a, v-a, g-a, d-a, e-a, j-a. Ba'zan g'azallar taxallussiz bo'lishi ham mumkin. Masalan, Navoiy devonidagi 27 ta g'azalda taxallus uchramaydi[1].

G'azal janr sifatida doimiy ravishda taraqqiy etgan. Har bir ijodkor unga turli yangiliklarni olib kirgan. Janr sifatidagi yangi qirralarini kashf etgan. Yangi-yangi turlarini yaratishgan. G'azal Sharq mumtoz adabiyotida paydo bo'lgan eng qadimiy janrlardan hisoblanadi. "Devonu lug'otit-turk" asari janrlarini o'rgangan rus olimasi L. Serikova asarda g'azal namunalari borligini ta'kidlaydi. Sharqshunoslarimiz

xulosalariga ko‘ra, u X-XI asrlardan boshlab faol janrga aylangan. O‘zbek adabiyotida g‘azalning 4 misra — 2 baytdan, 46 misra — 23 baytgacha bo‘lgan namunalari kuzatiladi. G‘azal sharq mumtoz adabiyotidagi eng faol va sayqallangan janrdir[2]. Uning saralanishida Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi o‘zbek shoirlarining, xususan, Alisher Navoiyning hissasi ulkan. Navoiy mazkur janrni takomillashtirib, yuksak cho‘qqiga ko‘tardi. U o‘zining eng sevimli janri sifatida, uning boshqa janrlarga nisbatan “dilosoroq va nishotafzoroq” ekanligini ta’kidlaydi. G‘azalning hajmi haqida ham har xil qarashlar bor. Qabul Muhammad “Haft qulzum”ida g‘azalning chegarasi 11 bayt bo‘lishi kerakligini ta’kidlar ekan, ammo amalda 12, 19, 21, hatto, 27 baytli g‘azalga ham duch kelganini e’tirof etadi. G‘azal mulkining sultonı Navoiy esa bir qit’asida 7, 9, 11, 13 baytli g‘azallar yozganini ko‘rsatib o‘tadi. Poetikaga doir asarlardagi ma’lumotlardan 5-15 baytli g‘azallar hajmi jihatidan ma’qul sanalgani seziladi. Ammo o‘zbek adabiyotida Ogahiy, Miriy kabi ijodkorlar 23 baytli g‘azallar ham bitganligi ma’lum.

Mumtoz asarlarni o‘qish, tahlil qilish va undagi ma’noni o‘quvchiga to‘liq yetkazib berish maqsadida turli usullardan foydalanib kelinmoqda. Hozirda dunyo adabiyotshunosligida ommalashib borayotgan metodlardan biri ontologik tahlil metodidir. Mazkur metodni mumtoz asarlar, xususan, g‘azallarga birinchilardan bo‘lib tatbiq etgan turk olimi Bayram Yavuzdir. “Darhaqiqat, ontologik tahlil metodini osonlikcha san’at asarlariga, xususan, badiiy asarlarga tatbiq etish mumkin”[3]. Masalan, Y.Bayramning ontologik tahlil metodi va uning bir necha g‘azallarga tatbiqiga oid maqolalaridan so‘ng D.Tökel, M.D.Erdem, A.Akgül, S.Kardash, U.Bingöl, Ö.Cığa, A.Demirel, A.Aksit va A.R.Özuygun kabi olimlar ham mazkur metodni klassik shoirlarning turli g‘azallariga tatbiq etish orqali tahlil namunalarini yaratishgan. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda g‘azalda mavjud bo‘lgan qatlamlarni aniqlash va tahlil qilishda ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin:

1. G‘azal bir butun holda olinib qatlamlarga ajratilgan.
2. G‘azalning har bir bayti alohida-alohida holda qatlamlarga ajratilgan.

Har ikki holatda ham g‘azalning to‘liq ma’nosini ochib berishga harakat qilingan. Lekin birinchi yondashuvda tahlil umumiylar tarzda amalga oshirilsa, ikkinchi yondashuv, ya’ni g‘azalning har bir baytini tovush, ma’no, obyekt, xarakter va taqdir qatlamlariga ko‘ra tahlil qilishda she’rdagi har bir so‘z, timsol, ishora va eng kichik, ko‘pincha o‘quvchining e’tiboridan chetda qoluvchi jihatlargacha qamrab olinganini kuzatish mumkin. Alisher Navoiyning “Ko‘zung ne qaro balo bo‘lubtur” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining matlasini ushbu metod asosida tahlil qilish orqali yuqoridagi fikrlarni dalillash va metodning imkoniyatlari haqida konkret tasavvur hosil qilish mumkin:

*Ko‘zung ne qaro balo bo‘lubtur*

*Kim, jong ‘a qaro balo bo‘lubtur.*

Old tarkib. Baytni tashkil etuvchi harflar, ularning ketma-ketligi, eshitilgan va ko‘rilgan narsalar old tarkib tuzilishining eng asosiy unsurlari hisoblanadi. Xususan:

– a va o unlilarining faolligi hamda b undoshining takrori bayt ohangdorligining ortishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib turibdi;

bayt ohangdorligini ta’minlaydigan asosiy jihat esa uning vaznidir:

vazn: hazaji axrabi maqbuzu mahzuf

taqtesi: — V / V – V – / V – – maf’uvlu mafoilun fauvlun qofiyadosh so‘zlar: qaro, balo (a-a tarzda qofiyalangan)

radifi: \_\_\_\_\_ bo‘lubtur \_\_\_\_\_ bo‘lubtur

Orqa tarkib

Ma’no qatlami. a) So‘zlarning ma’nolari (bunda baytdagi tushunarsiz ifoda, so‘z va qo‘shimchalar izohlanadi).

1. Ne – qanday? 2. Qaro – qora. 3. Bo‘lubtur – bo‘libdi.

4. Kim – yuklama ma’nosida. 5. Jong‘a – jonga

b) Jumla (bayt)ning ma’nosи (tabdili). Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur, *Ko‘zing qanday balo, qaro bo‘libdi*

*Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur. yoxud jon uchun qora balo bo‘libdi.*

Shuningdek,bu qatlamda baytda qo‘llangan badiiy san’atlar ham tekshirilishi o‘rinlidir[4]. Baytda balo va qaro so‘zlarining ikkinchi misrada o‘rin almashib kelishi natijasida butunlay yangi ma’no hosil qilingan va tardi aks san’atining go‘zal namunasi yaratilgan. Shuningdek, ko‘z baloga o‘xshatilishi orqali tashbeh va ikkinchi qaro so‘zining baloni, ya’ni dardni orttirib, bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qildirilgani sababli mubolag‘a san’ati yuzaga kelgan.

Yuqorida berilgan fikrlarni xulosa qilar ekanmiz, shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zamon talablariga to‘la javob bera oladigan ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Islohotlar jarayonida kadrlar tayyorlash bosqichida ekanmiz, bu jarayonda har bir pedagog uchun belgilangan vazifalardan biri yuqori saviyada o‘qitishni ta’minalash va malakali kadrlarni zamonaviy ta’lim dasturlari asosida tayyorlashdan iboratdir. Bu o‘rinda o‘qituvchining tayyorgarligi, uning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni bilishi, ulardan ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak filologlar zamonaviy adabiyotni o‘rganibgina qolmay, mumtoz adabiyotni, adabiy tur va janrlarni ham mukammal tadqiq qilishlari talab etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Obidjon Karimov. Mumtoz she'riyat janrlari fanidan uslubiy qo'llanma. «Namangan» nashriyoti 2015
2. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyotida harora g'azallar. Oltin bitiglar — Golden scripts 2019/4
3. Tunali I. Sanat ontologisi. – İstanbul, Edebiyat Fakültesi Matbaası, 1971. 123 s.
4. Dilfuza Tuxliyeva. G'azal janri va ontologik tahlil metodi. va adabiyot ta'limi. 2021-yil 11-son